

**AMIR TEMUR VAFOTIDAN KEYINGI TAXT UCHUN KURASHNING  
“ZUBDAT UT-TAVORIX”DA YORITILISHI  
(HOFIZI ABRU ASARLARIDA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI  
YORITILISHI)**

Sattorov Xurshid

Far.DU. 1-kurs doktoranti

**Abstract**

In the article, after the death of Amir Temur, the struggle for the throne, disputes between the Temurs, based on the work of Hafiz Abru, Zubdat at Tawarikh. The scientific literature created during the Timurid era is widely covered by comparison with the sources.

**Key words:** Amir Temur, Khalil Sultan, Balkh, Zubdat at Tavarikh Boysunguri, Samarkand, Bukhara, Zaffarnama, Struggle for the Throne.

**Annotatsiya**

Maqolada Amir Temur vafotidan soʻng Temuriyzodalar oʻrtasida boʻlib oʻtgan, taxt uchun kurashlar, nizolar oʻzaro janglar Xofiz Abruning Zubdat at tavorixi boʻysungʻiri asari asosida. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar manbalar bilan taqoslanib keng yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Amir Temur, Xalil Sulton, Balx, Zubdat at tavorixi boysungʻuri, Samarqand, Buxoro, Zaffarnoma, Taxt uchun kurashlar.

**Kirish.**

Amir Temur Amir Temur vafot etgach, amir Shohmalik va Shayx Nuriddin hamda haram ahli voqeani yashirishga intildi. Dastlab soʻl qanot qoʻmondoni Mirzo Sulton Husayn, oʻng qanot qoʻmondoni amirzoda Xalil Sultonga maktub yuborib, sohibqiron kasal ekanligi sababli Oliy oʻrdaga zudlik bilan yetib kelishlari soʻraldi.

Soʻngra Mirzo Pir Muhammadga uning valiahd etib tayinlanganligi va tezda Samarqandga yetib kelishi zarurligi xususida maktub joʻnatildi<sup>1</sup>.

Amir Temurning bemor ekanligi xususida xabardor qilingan Mirzo Sulton Husayn va Xalil Sulton Oʻtorga kelmaydi.

Shundan soʻng amirlar Chukalak<sup>2</sup> mavzesida toʻplanib, qoʻshin orasida yoshi ulugʻi boʻlgan amirzoda Xalil Sultonni podshoh etib koʻtargan holda Xitoy yurishini davom ettirishni va Xitoy yurishidan qaytgandan soʻng, vasiyat boʻyicha ish koʻrishni maslahat qiladilar<sup>3</sup>.

Shu bilan birgalikda, Xalil Sulton taxt uchun jiddiy harakatni boshlab yuboradi. U dastlab Toshkent va Sayramda turgan zahiradagi barcha ot, xachir va tuyalarni, shuningdek, mablagʻ hamda qurol-yarogʻni oʻzi bilan hamfikir boʻlgan bek va navkarlarga tarqatdi. Amir Burunduqni lashkardan ajratish maqsadida uni avvalroq daryodan kechib oʻtish uchun joʻnatdi va oʻzi ham lashkar bilan uning ortidan Samarqand tomon yoʻl oldi. Bu vaqtda Xalil Sulton huzuridagi yirik amirlar oʻzaro til biriktirib, unga qarshi chiqishga kelishib oladilar<sup>4</sup>. Oʻzaro kelishuvga koʻra amir Burunduq amir Shohmalik va Shayx Nuriddinga borib qoʻshilishi, amir Xudoydod Husayniy va Shamsuddin Abbas esa oʻz askarlari bilan Ochiq Farkat mavzesiga yoʻl olib, u yerdan vaziyatga qarab ish tutishlari kerak edi.

Xalil Sultonning qachon Samarqandga yetib kelganligi xususida aniq maʼlumot yoʻq. Manbalarda taʼkidlanishicha, 5 mart kuni Samarqanddan Buxoro tomon yoʻlga chiqqan amirlar 6 mart kuni Buxoro va Samarqand oʻrtasidagi Dabusiya<sup>5</sup> qalʼasiga yetib kelganlarida ularning huzuriga Samarqand hokimi

<sup>1</sup>Йаздий. Зафарнома. – Б. 298.

<sup>2</sup>Чукалак –Ўтрор шаҳри яқинидаги мавзе. Бу мавзе 1387–1388 йилларда Мирзо Умаршайх бошчилигидаги темурийлар лашкари ва Тўхтамишхон юборган Дашти Қипчоқ қўшини ўртасидаги жанг бўлиб ўтган майдон сифатида ҳам машхур. Мавзе номини Яздий ва Хондамир Чукалак, Шомий Чулок, Хофиз Абу ва Самарқандий Жулок тарзида беришган. Қаранг: Шомий. Зафарнома. –Б. – 143; Йаздий. Зафарнома. – Б.117; 670. ص. حافظ ابو. جلد دوم. – ص. 118. Самарқандий. مفضل السعدي. . Қўлэзма. – Б. 185; Хондамир. Ҳабиб ус-сийар... . – Б. 118.

<sup>3</sup>Йаздий. Зафарнома. – Б. 299. Хондамир ҳам Халил Султон иштирокида Хитой юришини давом эттиришга келишилганлигини таъкидлайди. Қаранг: Хондамир. Ҳабиб ус-сийар... . – Б. 285.

<sup>4</sup>Тағ ас-Salmānī.– P. 37.

<sup>5</sup>Дабусия – Самарқанд– Бухоро йўлида жойлашган кичик шаҳар, қалъа. Қаранг: Бўриев О. Темурийлар даври эзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Б. 154.

Arg'unshohdan maktub bilan Bayon Temur xazinachi<sup>6</sup> yetib keladi. Xatda Arg'unshoh yana bir bor Mirzo Pir Muhammadga sodiq ekanligini tasdiqlagan va amirlarni Samarqandga kirgizmaganligi uchun izoh berib, uzr so'ragan edi. Amirlar Shohmalik va Shayx Nuriddin ham bu safar nochorlikdan ularning fikrini ma'qullagan holda, shu ahdlarida sodiq tursalar katta mavqe va maqomga ega bo'lishlarini ta'kidlab, javob maktubi jo'natadilar. Shundan ikki-uch kun keyin, demak 8 yoki 9 mart kunlari Xalil Sultonning Samarqandga yetib kelganligi va shahar kalitlari unga topshirilganligidan xabar topadilar. Ularning Samarqanddan Dabusiyaga bir kunda yetib kelganlarini hisobga olsak, Xalil Sulton kechi bilan 9 mart kuni Samarqandga yetib kelganligi oydinlashadi.

Xalil Sulton Samarqandga yetib kelgan vaqtda Mirzo Shohrux ham unga jiddiy xavf tug'dira olmasdi. Mirzo Shohruxga Amir Temurning vafot etganligi xabari 1405 yili 1 mart kuni yetib keladi<sup>7</sup>. Muarrir Fasih Havofiy ushbu xabar Amir Shayx Nuriddin va Shohmalik tomonidan yuborilganligini ta'kidlagan. 1405 yil 3 mart kuni esa Mirzo Shohrux Hirot shahrida o'z nomiga xutba o'qitib, taxtga o'tiradi va Mirzo Pir Muhammadning valiahd etib tayinlanganligini bee'tibor qoldiradi. Agar u xutbaga valiahd Mirzo Pir Muhammad nomini ham qo'shib o'qitganida Sohibqironning vasiyatiga ma'lum darajada amal qilayotganligi ko'zga tashlanardi. Uning bunday maqsadi yo'qligi, tezda Movarounnahr tomon yo'lga chiqqanligida ham ko'rinadi. Lekin Mirzo Shohruxhali Murg'ob daryosidan kechib o'tmasdanoq, yurishni to'xtatadi<sup>8</sup>.

Mirzo Shohruxning Hirotidan Samarqand tomon qachon yo'lga chiqqanligi haqidagi fikrlar ham biroz bahslidir. Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sulton saltanat poytaxtini qo'lga kiritganligi haqidagi xabar Hirotga yetib kelganidan keyin yurish boshlanganligini ta'kidlaydi<sup>9</sup>.

Bizningcha, bu xabarlar Samarqandni Xalil Sulton qo'lga o'tganligi haqida emas, balki amirlar Shayx Nuriddin va amir Shohmalikning Samarqandga kira

<sup>6</sup>Баён Темур хазиначи – 1401 йили Боғдодни забт этиш чоғида ҳалок бўлган Менглихожанинг иниси, Amir Temurning xazinachisi. Кенгроқ маълумот учун қаранг: Дадабоев Х. Amir Temur даврдошлари. – Б. 40, 103.

<sup>7</sup>Хавафи. Муджмал-и Фасихи. – С. 126.

<sup>8</sup>Самарқандий. Матлаи саъдайн... . 2-Ж. 1-Қ. – Б. 49.

<sup>9</sup>Ҳофизи абру 3 – жилд. – Б. 14–15; Самарқандий. Матлаи саъдайн... . 2-Ж. 1-Қ. – Б. 48.

olmagan va poxtaxt hokimining Xalil Sulton bilan kelishib olganligi xususidagi bo‘lishi kerak. Ya’ni, bu xabarlar 1405 yilning 5-6 mart kunlari Samarqand atrofida yuz bergan voqealarni anglatgan. Bizningcha, Mirzo Shohrux Hirotda o‘z nomiga xutba o‘qitganidan so‘ng bir hafta o‘tgach, taxminan 10 martdan keyin o‘zining Movarounnahr yurishini boshlagan. Hirotdan Movarounnahr tomon yo‘lga chiqqan Mirzo Shohrux To‘qqiz rabotmavzeiga yetkanida Samarqand xabarlarini aniqlash uchun Xizrxojava Shayx Hasan qavchin<sup>10</sup> ismli beklarni Movarounnahrda jo‘natgan. Amir Sayyidxoja keltirgan xabar ham Samarqandning Xalil Sulton qo‘liga o‘tganligi xususida bo‘lmagan. Uning ma’lumotida Movarounnahrda Xalil Sulton tarafdorlari ko‘payib, uning mavqei oshib borayotganligi haqida so‘z yuritilgan bo‘lishi kerak. Chunki Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiy ma’lum muddat to‘xtagan Mirzo Shohrux yurishni davom ettirib, Murg‘ob daryosini kechib, Shaxzoda Boyazid langariga yetganidan keyingina Movarounnahrda ketgan amir Xizrxoja va Shayx Hasan qavchin qaytib kelganligini ta’kidlaydilar. Ular Samarqand taxtiga Xalil Sulton o‘tirganligi haqida ma’lumot beradilar. Bu haqida Hofizi Abru ma’lumot berib o‘tgan.

1405 yil 18 mart kuni, ya’ni Amir Temur vafot etganidan roppa-rosa bir oy muddat o‘tgach, Xalil Sulton Samarqandga kirib keladi va hokimiyatni qo‘lga kiritadi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha hikoya qilgan: “Va maslahat uchun amirzoda Muhammad Jahongirkim, amirzoda Muhammad Sultonning o‘g‘li erdi va amirzoda Pir Muhammad valiahdning birodarzodasining o‘g‘li erdi, ani xon qildi va aning yoshi ul mahalda to‘qqiz yil erdi. Va ani izzat uchun yuqori o‘lturg‘uzdi. Va amirzoda Xalil Sulton istiqloq bila saltanat amrig‘a mashg‘ul bo‘ldi va sikka va xutba Movarounnahrda aning otig‘a o‘qudilar”.

Xalil Sulton oldidagi birlamchi vazifalardan biri Mirzo Shohrux bilan munosabatlarga aniqlik kiritib olish edi. UBuxoroni o‘z hukmronligi ostiga olish maqsadida Rustam Tag‘ay Bug‘oni o‘z tomoniga og‘dirishga intilayotgan vaqtda Hirotdan elchi kelib, Mirzo Shohruxning so‘zlarini yetkazdi. Mirzo Shohrux

---

<sup>10</sup>Шайх Ҳасан қавчин – Мирзо Шохрух хизматида бўлган беклардан бири. Фаолияти асосан Хуросон ҳудудларида кечган. Кенгроқ маълумот учун қаранг: Дадабоев Ҳ. Амир Темур даврдошлари –Б. 226.

o‘zining yoshi kattaligi sababli Xalil Sultonni o‘ziga bo‘ysunib, huzuriga yetib kelishga chorlagan va unga xazina, mamlakat hamda askardan orzu qilganicha in‘om etishga tayyorligini bildirgan edi. Bu haqida Hofizi abru to‘xtalib o‘tgan.

Xalil Sulton bu vaqtda Amudaryo sohilida turgan Xuroson hukmdorining maktubiga hali kuchlar nisbatiga to‘la aniqlik kiritilmagan vaziyatda o‘ta bosiqlik va yuqori diplomatik saviyada javob qaytaradi: “Men onhazratning bandasi, davlatxohi va inisimen, ammo hazratimizning elu uluslari Xurosondadur; albatta u mamlakatni tashlab ketmasalar kerak va bu viloyatni biror qullariga yoki ini va noiblariga topshirarlar. Shunday bo‘lgach, bu ishga mendan boshqa qaysi bir qul qobiliyatliroq bo‘la olishi mumkin?! Agar iltimosni qabul qilib, yaqin qarindoshlik huquqiga rioya qilsalar va baxtu saodat bilan qaytib ketsalar, men xazina va mol yuboramem hamda har nimagaki ishorat qilsalar, bajo keltiramem”. Ushbu javob maktubidan Xalil Sultonning Movarounnahrda voz kechmasligi ayon bo‘lgach, Mirzo Shohrux Hirotga qaytishga qaror qildi. Movarounnahr hokimi tomonidan uning oliy hukmdorligi rasman bo‘lsa-da tan olinishi bilan cheklanishga majbur bo‘ldi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, X. Fayziyev ushbu maktub mazmunini keltirishda Abdurazzoq Samarqandiy mubolag‘a ishlatgan, Xalil Sulton keyingi maktublarini Mirzo Shohruxga nisbatan mensimaslik kayfiyatida bitganiga qaraganda buni faqat diplomatik murojaat shakli sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining mazkur fikrini tasdiqlagan holda, maktub mazmuni Xalil Sultonning 1405 yil mart oyi oxiri va aprel oyidagi imkoniyatlaridan kelib chiqqanligi qo‘shimcha qilish mumkin.

Sulh shartlariga ko‘ra har ikki tomon ham o‘z poytaxtlariga qaytgan bo‘lsa-da, Fasih Xavofiyning fikricha, Xalil Sulton sulh shartlari bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘la bajarmaga. Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sulton tomonidan Xonika begim xazinasi bilan Balxga jo‘natilganligini, lekin uning bir qismi Mirzo Sulton Husayn tomonidan talon-taroj qilinganligini ta’kidlagan. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Xalil Sulton sulh shartlarining ba’zilarini bajargan.

X. Fayziyev sulh shartlari bajarilmaganidan xabar topgan Mirzo ShohruxXalil Sultonga qarshi harbiy harakatlarni qayta boshlaganligini, lekin 1405 yilning 29 iyunida Mirzo

Xalil Sulton ham 1405 yil 28 iyun kuni Samarqanddan isyonchilarga qarshi yo‘l oladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, u yurish oldidan xazinadan katta miqdorda mablag‘ ajratib lashkarni rag‘batlantiradi. 1405 yil 6 iyulda bo‘lib o‘tgan Jigdolik mavzesida bo‘lib o‘tgan jang Samarqand qo‘shini g‘alabasi bilan yakunlanadi. Harbiy harakatlar boshlanishi bilan amirlar Arg‘unshoh va Allohhdod lashkarlari bilan Xalil Sulton tomoniga o‘tib ketishi jang taqdirini hal qiladi. Mag‘lubiyatga uchragan Mirzo Sulton Husayn Xurosonga Mirzo Shohrux qoshiga qochadi va keyinchalik o‘sha yerda o‘ldiriladi. Fasih Xavofiy u farmonga binoan amir Nushervon barlos tomonidan Hirotning Bog‘i Zubayda bog‘ida qatl etilganligini qayd etgan.

Ushbu g‘alabadan so‘ng Movarounnahrning janubiy chegaralarida ma’lum muddat tinchlik o‘rnatiladi. Bu ko‘proq Mirzo Shohruxga qarshi yirik amirlardan biri Sulaymonshohning isyon ko‘tarishi va unga qarshi kurash, Shoh Ali va Shoh G‘iyosiddin, Mavdud Garmseriyning Hirot hukmdoriga bo‘ysunishdan bosh tortishi kabi voqealar bilan bog‘liq edi.

Movarounnahrda ko‘chmanchilarning hujumlari, odatda, qish vaqtida amalga oshirilgan. Xorazmning aynan qishda zabt etilgani ham shundan dalolat beradi. Buni hisobga olgan amir Shohmalik Samarqand ustiga yurish qilishga shoshiladi va BalxdaMirzo Pir Muhammad bilan uchrashadi. Ular dastlab Xalil Sulton huzuriga maktub bilan elchi yuboradilar. Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sultonga yuborilgan maktubning mazmunini quyidagicha keltirgan: “Mirzo Pir Muhammad hazrat sohibqironning valiahdidir; taxt unga tegishli, chunki u og‘a, mirzo Xalil esa inidir. ... Hazrat sohibqiron taxtu mamlakat Xalil Sultonga qoladi, deb qachon vasiyat qilgan”. Xalil Sulton esa bunga javoban “Amir (Temur sohibqiron) hazratlariga mamlakatni bergan u qodir (egam) menga ham inoyat qildi”, deya maktub jo‘natdi. Xalil Sulton tomonidan berilgan javob anchagina

batafsil, badiiy uslubda ibn Arabshoh tomonidan ham keltirilgan. Unda Xalil Sulton Amir Temur tomonidan ko‘plab shahzodalarga mulk in‘om etilgani holda unga biror viloyat berilmaganligini, shu sababli o‘zi uni qo‘lga kiritishga qaror qilganligiga urg‘u bergan. Faqat u bu maktub almashunuvlarni 1405 yilning birinchi yarmidagi voqealar qatorida noto‘g‘ri keltirgan. Umuman olganda muzokaralar natija bermagach, Mirzo Pir Muhammad va amir Shohmalik qo‘shin bilan daryodan o‘tib, Samarqand tomon yo‘l oldilar.

Manbalarda ittifoqchilarning ushbu yurishiga qarshi Xalil Sulton jiddiy tayyorgarlik ko‘rganligi ta’kidlanadi. Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sulton lashkar ahliga behisob ehsonlar ko‘rsatganligini qayd etish bilan cheklangan bo‘lsa<sup>11</sup>, Hofizu Abrubu masalani kengroq yoritadi. U Xalil Sulton tomonidan qo‘shinga naqd pul shaklida katta miqdorda oltinu kumush, shu bilan birgalikda qimmatbaho toshlar, qurol-aslaha hamda matolar tarqatilganligi haqida hikoya qiladi. Ibn Arabshoh ham shu mazmunda ma’lumot beradi. Lekin uning aytishicha, Xalil Sulton qo‘shini tarkibida turli hududlardan kelgan askarlar mavjud bo‘lgan. Bu Xalil Sulton qo‘shinining asosiy qismini hamon Xitoy yurishiga temuriylar saltanatining turli hududlaridan jalb etilgan askarlar tashkil etganligidan dalolat beradi. Ibn Arabshohning ushbu fikrlari Abdurazzoq Samarqandiy va Hofiz Abru keltirgan ma’lumotlarga ham mos keladiki, buhaqida quyida fikr bildirilgan.

Tarixiy manbalardagi ba’zi ma’lumotlar Mirzo Pir Muhammad va ittifoqchilari qo‘shinining yurish yo‘nalishi xususida fikr yuritish imkonini beradi. Ibn Arabshoh Mirzo Pir Muhammad Amudaryoni kechib o‘tib, avval Hisori Shodmonga yetib kelganligini qayd etgan. Bundan ko‘rinadiki, yurish Xuttalon, Surxon vohalari orqali olib borilgan va Hisor viloyati ham bo‘ysundirilgan. Hisordan Kesh orqali Samarqandga borish qulay edi. Lekin yuqorida ko‘rib o‘tilgan sabablar tufayli, ya’ni yurishni Buxoro orqali davom ettirish istagi sabab ular Nasaf tomon yo‘l olishgan.

Nasaf yonidagi jang Xalil Sultonning harbiy qudrati va sarkardalik mahorati kuchli ekanligidan dalolat beradi. Movarounnahr qo‘shinining o‘ng qanotini amir

Burunduq barlos, chap qanotini esa amir Sulaymonshoh boshqaradi. Xalil Sulton esa umumiy qo'mondonlik bilan birgalikda markazni boshqarishni ham o'ziga qoldiradi. Uning qo'shini tarkibi haqida so'z yuritgan Abdurazzoq Camarqandiy va Muhammad Mirxond lashkar Movarounnahr dilovarlari, Xuroson polvonlari va Iroq bahodirlaridan tashkil topganligini ta'kidlagan. Ittifoqchilar lashkarining asosiy qismini Mirzo Shohruxga tegishli lashkar tashkil etganligi ularning safidan ham anglashiladi. O'ng qanotga Mirzo Shohruxning yirik amirlaridan biri Nushervon barlos, chap qanotga esa Mirzo Ulug'bek, amir Shohmalik va Yodgorshoh Arlot boshchilik qiladi. Ko'rinadiki, lashkarning o'ng va chap qanoti Mirzo Shohrux jo'natgan harbiy qismlardan iborat edi. Markazda esa Mirzo Pir Muhammadning o'zi joylashadi.

Jang boshlanishi bilan Xalil Sulton boshchiligidagi Movarounnahr lashkarining markazi ittifoqchilar qo'shinining Mirzo Pir Muhammad rahbarligidagi g'uliga hujum qiladi va raqibni chekintiradi. Markazning chekinishi har ikki qanotni ham sarosimaga solib qo'yadi. Natijada birinchi bo'lib arlotlardan tashkil topgan harbiy qism jang maydonidan qochadi. Yodgorshoh arlotning chap qanotda joylashganligidan kelib chiqsak, birinchi bo'lib chap qanot qochishni boshlab berganligi oydinlashadi. Abdurazzoq Samarqandiy ham juvong'or va barong'or tarqalib ketganligini, g'ulning o'z yeridan qo'zg'alib jo'naganligini ko'rgan Mirzo Ulug'bek va amir Shohmalik ham jangni to'xtatganliklarini ta'kidlaydi. Lekin muallif bu yerda Mirzo Ulug'bek va amir Shohmalikni ehtiyot qilib yozgan ko'rinadi. Chunki uning o'zi balxliklarning aslaha yuklari samarqandliklar qo'liga tushganligini qayd etgan. Bu esa markaz chekinsada jang maydonidan qochmay, jangni davom ettirganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, Xalil Sulton rahbarligidagi Mavorounnahr lashkarining markazi tomonidan berilgan zarba jang taqdirini hal qiladi.

Xalil Sulton lashkarining ilg'or qismlari Amudaryodan ham o'tib, Shibirg'on va Andxud viloyatlarini talon-taroj qiladilar. Lekin Mirzo Shohruxning ushbu hududga yaqin bo'lgan Bodg'is viloyatida turganligi sababli, Amir



Sulaymonshoh, amir Arg'unshoh va Ahmad chuhra boshchiligidagi Movarounnahr lashkarining ilg'or qismi Amudaryo ortiga qaytishni ma'qul ko'radi.

V. V. Bartold Mirzo Shohruxning bu vaqtda Mirzo Pir Muhammad bilan avvaldan kelishgan holda Murg'ob daryosi bo'yiga yetib kelgan bo'lib, Movarounnahrqa yurish qilishga tayyor turganligini ta'kidlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Shohrux qish fasli oxiriga yetganida Bodg'is tomon yo'lga chiqqanligini va manziliga yetmasdan Nasaf jangi xususidagi xabarni eshitganligini qayd etgan. Fasih Xavofiy ham Mirzo Shohruxning Bodg'is tomon yo'lga chiqishi xabarini Nasaf jangidan avval keltirgan<sup>12</sup>. Lekin Hofiz Abru Mirzo Shohrux Movarounnahr amirlarining Shibirg'on va Andxudga hujumini eshitganidan so'ng bu yerga yetib kelganligi ta'kidlagan. Bizningcha, Mirzo Shohrux Bodg'is yaylovi tomon Mirzo Pir Muhammad qo'shinlari Amudaryoni kechib o'tganidan so'ng yo'lga chiqqan. Mirzo Shohrux ittifoqchilar qo'shini Nasaf jangida g'alabaga erishganida yurishga qo'shilishi mumkin edi. Chunki u o'z qo'shinarining bir qismini Mirzo Pir Muhammad lashkariga qo'shib Movarounnahrqa, yana bir qismini amir Jahonmulk boshchiligida Garmser viloyatiga yuborgan bo'lib, bir vaqtda o'z ixtiyorida qolgan qo'shin bilan tavakkal qila olmasdi.

Xalil Sulton Samarqand taxtini qo'lga kiritganidan so'ng Xurosonga ketgan Shayx Nuriddinning qachon Movarounnahrqa qaytganligi to'g'risida manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q.

Abdurazzoq Samarqandiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, 1405 yilning may oyida amir Shayx Nuriddin Xuroson hukmdori Mirzo Shohrux xizmatida edi: "Hazrat hoqoni said amir Shayx Nuriddin nimani maslahat ko'rgan bo'lsa, ma'qul topdi va amir Shayx Nuriddin, Amir Abdusamad, Bakana Baxshiy va Allohdoxozinlarni Jayhundan o'tib, barcha muhim ishlarni saranjom qilib qaytishga tayinladi". G'iyosiddin Xondamir manba sifatida Abdurazzoq Samarqandiyga tayangani uchun ham Shayx Nuriddin Mirzo Shohrux topshiriqlarini bajarib

---

12

bo‘lganidan so‘ng Movarounnahrda qaytib kelganligini ta’kidlagan. Mirzo Shohruxning Samarqandga jo‘natilgan elchilari safida bo‘lgan Fasih Xavofiy esa nima uchundir amir Shayx Nuriddinning mazkur faoliyati xususida ma’lumot bermagan. B. Usmonovning ta’kidiga ko‘ra, shundan keyingi Xurosondagi voqealarda uning ishtiroki haqida har ikkala manbada ham ma’lumot keltirilmaydi. Abdurazzoq Samarqandiy 1409 yil voqealari bayonida Shayx Nuriddin Mirzo Shohruxning ruxsati bilan zarurat tug‘ilganda xizmatga yetib kelishga so‘z berib, Movarounnahrda ketganligi xususida quyidagicha ma’lumot beradi: “Amir Shayx Nuriddin Movarounnahr tarafiga borishga ijozat so‘ragan vaqtida: “Qachonki humoyun mavkab Movarounnahrda qarab yurgudek bo‘lsa, men ham oliy o‘rduga kelib qo‘shilaman”, – deb arz qilgan edi”<sup>13</sup>. Muarrixning ushbu ma’lumotida garchi biror bir sana berilmagan bo‘lsa-da, unda amir Shayx Nuriddin Mirzo Shohrux bilan o‘zaro kelishgan holda, uning roziligi bilan Movarounnahrda ketganligi aks etgan. E’tiborlisi shuki, amir Shayx Nuriddin Mirzo Shohruxning o‘g‘li shahzoda Ibrohimning otaligi edi. Bu yuksak lavozim unga Mirzo Ibrohimga in’om etiladigan viloyatlarni shahzoda nomidan boshqarish huquqini berardi. Shayx Nuriddinning bu holatda Movarounnahrda ketishi ba’zi mulohazalarni keltirib chiqaradi.

Amir Shayx Nuriddin 1405 yilning iyun oyida Movarounnahrda qaytgan bo‘lsa kerak. Chunki muarrix Fasih Xavofiy 1405 yilning yozida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni hikoya qilish chog‘ida, Samarqand shahrida Xalil Sulton Amir Temurning bevasi Tuman oqani amir Shayx Nuriddinga xotinlikka berganligihaqida ma’lumot beradi. Amir Shayx Nuriddinning Movarounnahrda kuchli mavqegini hisobga olgan Xalil Sulton u bilan yaqinlashish maqsadida Tuman oqanixotinlikka bergan. Shayx Nuriddinning Movarounnahr shimoliga kelib o‘rnashishi bu yerdagi siyosiy vaziyatni va kuchlar nisbatini butkul o‘zgartirgan. Turkiston shaharlarini egallashga da’vogar bo‘lgan amir Xudoydod Husayniy ham uning maqeyini tan olib, u bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatishga majbur bo‘lgan.

Movarounnahrning janubiy chegarasidagi mazkur o'zgarishlar Xalil Sultonni tashvishga solmay qo'ymadi. U amir Allohddod, Seydi va Mansur Xumoriylarni Termizga jo'natdi. Ibn Arabshoh Amudaryo bo'yiga jo'natilgan lashkarga Chingizxon bosqinidan beri vayron bo'lib yotgan Termiz shahri qal'asini qayta tiklash va mustahkamlash topshirilganligini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, bu voqea 1407 yilning iyul-avgust oylarida bo'lib o'tgan. "Xalil Sulton qo'shinlaridan bir toifa yuborib, – deb yozadi muarrix, – ularni Allohddodga qo'shdi va (yana) ularga askarboshilaridan Ilyosxoja, ibn Qumari Mansur, Tavakkul Qarqaro, Davlat Temur va boshqalarni biriktirib, Termiz (shahri)ni tiklashga jo'natdi". Termiz shahri devorini qayta tiklash ishlari lashkarning kuchi bilan 15 kunda bajarilgan. Shundan so'ng, aholiga yashash uchun manzillar, masjid va bozorlarning o'rni belgilab berilgach, xalq ko'chib kelib, Termiz obod va mustahkam shaharga aylangan. Yangi shahar eski shahardan bir farsax uzoqlikda barpo etilgan edi.

Shu o'rinda yuqoridagi voqealar bo'yicha ba'zi bir mulohazalarni bildirish lozim topildi. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Shohrux 1409 yil 22 mart kuni Bodg'is tomon yo'lga chiqqanligini va lashkar to'plashga farmon berganligini ta'kidlagan. Xalil Sultonning 1409 yil 30 mart kuni asir olinganidan kelib chiqsak, Mirzo Shohruxning Bodg'isda qo'shin to'plashi fevral oyining oxiri yoki martning boshlaridan boshlangan bo'lishi kerak. Chunki Xuroson qo'shinlarining Bodg'isda yig'ilayotganligidan xabar topgan Xalil Sultonning Keshga kelishi, so'ngra Xudoydod Husayniyning hujumidan xabar topib o'z amirlarini Jizzax tomon jo'natishi, Jizzaxga yetib borgan Samarqand lashkari yordam so'ragach, o'zi ham Kesh tomon yo'lga chiqishi hamda Sherozda asir olinishi voqealarining bir hafta ichida (1409- yil 22-30-mart) bo'lib o'tishi mumkin emas. Bu esa X.Fayziyev ta'kidlaganidek, Xudoydod Husayniyning yurishi Mirzo Shohrux tomonidan rejalashtirilganligini ko'rsatadi.

Amir Xudoydod Husayniy Xalil Sultonni asir olgach, uning nomidan farmon berish orqali deyarli butun Movarounnahrni o'ziga bo'ysundirdi. Albatta, bu Mirzo

Shohruxning rejalariga mos emas edi. U tartib oʻrnatuvchi, oʻzaro nizolarga chek qoʻyuvchi sifatida Movarounnahrda kirib keldi. Xudoydod Husayniy Samarqandda Mirzo Shohruxning noibi boʻlishga tayyorligini bildirdi. Mirzo Shohruxning Movarounnahrda kirib kelgan vaqtda Shayx Nuriddin ham Buxoro shahriga hujum boshladi. Lekin u kutilmaganda Xudoydod Husayniy tomonidan magʻlubiyatga uchratildi. Ushbu muvaffaqiyatdan ruhlangan Xudoydod Husayniy Amirak Ahmad mirzo va Saydi Ahmad mirzolari Hisorni zabt etishga yubordi. Lekin ular Mirzo Shohrux lashkariga borib qoʻshildilar. Natijada Mirzo Shohruxga qarshilik qila olmasligini tushungan Xudoydod Husayniy oʻz mulki boʻlgan Fargʻonaga qaytib ketdi.

Xudoydod Husayniy Mirzo Shohrux qoʻshinining yurish yoʻnalishlari boʻylab oʻz lashkarini joylashtiradi. Uning oʻzi Toshkentni, oʻgʻli Allohdo Shohruxiya qalʼasini, yana bir oʻgʻli Abduholiq Xoʻjand yaqinidagi Aʼlo qalʼasini himoya qilishi kerak edi. Fargʻona vodiysini zabt etish, amir Abduholiqqa qarshi kurashish uchun Mirzo Amirak Ahmad boshchiligida qoʻshin joʻnatgan Mirzo Shohrux oʻzi Oʻratepaga kelib joylashadi. Mirzo Shohrux lashkari Shohruxiya va Aʼlo qalʼasini qamalga olgan vaqtda Toshkentga yetib kelgan moʻgʻul shahzodasi Shamʼi Jahon Mirzo Shohrux bilan toʻqnashishni xohlamay Xudoydod Husayniy qatl etadi hamda oʻz yurtiga qaytib ketadi<sup>14</sup>. Natijada koʻp oʻtmay Shohruxiya qalʼasi ham taslim boʻlib, Toshkent va Turkiston shaharlarida ham Mirzo Shohrux hukmronligi oʻrnatiladi.

Bu vaqtda Andijon shahrida turgan Xalil Sulton dastlab Aʼlo qalʼasiga yetib keldi. Aʼlo qalʼasini amir Shohmalik qamal qila boshlagach, amir Shayx Nuriddin huzuriga ketgan Xalil Sulton oxir oqibat Mirzo Shohruxga taslim boʻlishga majbur boʻldi.

### **Xulosa:**

Shu tariqa Movarounnahrda hokimiyat uzoq davom etgan oʻzaro kurashlardan soʻng Mirzo Shohrux qoʻliga oʻtdi. Bu esa mamlakatda maʼlum darajada tinchlik oʻrnatilishini taʼminladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йаздий. Зафарнома. – Б. 298.
2. Чукалак – Ўтрор шаҳри яқинидаги мавзе. Бу мавзе 1387–1388 йилларда Мирзо Умаршайх бошчилигидаги темурийлар лашкари ва Тўхтамишхон юборган Дашти Қипчоқ қўшини ўртасидаги жанг бўлиб ўтган майдон сифатида ҳам машҳур. Мавзе номини Яздий ва Хондамир Чукалак, Шомий
3. Чулок, Ҳофиз Абру ва Самарқандий Жулок тарзида беришган. Қаранг: Шомий. Зафарнома. –Б. – 143;
4. Йаздий. Зафарнома. – Б.117;670. جلد دوم. - ص. حافظ ابرو. ; Самарқандий. مقطع السعدين... . Қўлёзма. – Б. 185; Хондамир. Ҳабиб ус-сийар... . – Б. 118.
5. Йаздий. Зафарнома. – Б. 299. Хондамир ҳам Халил Султон иштирокида Хитой юришини давом эттиришга келишилганлигини таъкидлайди. Қаранг: Хондамир. Ҳабиб ус-сийар... . – Б. 285.
6. Tāğ as-Salmānī.– P. 37.
7. Дабусия – Самарқанд– Бухоро йўлида жойлашган кичик шаҳар, қалъа.
8. Қаранг: Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Б. 154.
9. Дадабоев Ҳ. Амир Темур даврдошлари. – Б. 40, 103.
10. Хавафи. Муджмал-и Фасихи. – С. 126.